

# **Uzbekistan Airways ikkinchi Airbus 330 samolyotini kutib oldi**

**2023 7 May**

2023-yilning 7-may kuni Uzbekistan Airways aviakompaniyasi Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportida ikkinchi Airbus 330 havo kemasini tantanali tarzda kutib olish marosimini o'tkazdi.

Poytaxt aeroportida avialayner an'anaga ko'ra suv arkasi bilan kutib olindi. Havo kemasini kutib olish uchun bo'lib o'tgan tantanali tadbirda Transport vazirligi, "Uzbekistan Airways" AJ rahbariyati va xodimlari, OAV vakillari hamda aviaspotterlar ishtirok etishdi.

2022-yilda Uzbekistan Airways 4 milliondan ortiq yo'lovchini o'z manziliga yetkazib qo'ydi. Havo kemalari parkini kengaytirish va yo'nalishlar tarmog'ini ko'paytirish bo'yicha vazifalarni bajarish konsepsiyasi doirasida Airbus 330 rusumidagi ikkita samolyotni lizingga olishga qaror qilindi.

Airbus A330 uzoq masofaga parvoz qiladigan samolyot hisoblanadi. Uning saloni 266 nafar yo'lovchiga mo'ljallangan bo'lib, ulardan 18 tasi biznes-klass, 248 tasi esa ekonom-klass yo'lovchilari uchun. Ushbu turdagi havo kemalari 12 000 km gacha bo'lgan masofaga parvoz qila oladi, uzunligi 58,37 m, qanotlari esa 60,3 mni tashkil qiladi.

21-aprel kuni qabul qilingan Airbus 330 rusumidagi birinchi samolyot Toshkent - Istanbul va Toshkent - Dubay yo'nalishlarida muntazam parvozlarni amalga oshirmoqda. Bu turdagi ikkinchi samolyot ham mazkur yo'nalishlarda foydalanilishi rejalashtirilgan.

